

## URGANCH IXTISOSLASHTIRILGAN SAN'AT VA MADANIYAT MAKTABIDAGI "MUSIQA NAZARIYASI" BO'LIMI FAOLIYATI

**Shukurullayeva Sevinchoy Qahramon qizi**

O'zbekiston Davlat Konservatoryasi Nukus filiali

"Musiqashunoslik" fakulteti

San'atshunoslik: "Musiqashunoslik" mutaxassisligi

2 - kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **v.v.b.dotcent Rajabova Nodira Fattayevna**

**Anotatsiya:** Maqolada musiqa nazariyasi bo'limi faoliyati yoritilgan. Unda o'qituvchilarning zamonaviy uslublardan foydalangan holda solfedjio, garmoniya, polifoniya va musiqa adabiyoti fanlarini o'qitish tajribalari hamda o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishdagi yondashuvlar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** musiqa nazariyasi, san'at maktabi, o'quv jarayoni, o'qitish metodikasi, solfedjio, garmoniya, musiqiy tafakkur, ijodiy yondashuv.

**Аннотация:** В статье освещается деятельность кафедры теории музыки Ургенчской специализированной школы искусств и культуры. Обсуждается опыт преподавателей в преподавании сольфеджио, гармонии и музыкальной литературы с использованием современных методик, а также подходы к развитию творческого мышления учащихся.

**Ключевые слова:** теория музыки, школа искусств, образовательный процесс, методика обучения, сольфеджио, гармония, музыкальное мышление, творческий подход.

**Abstract:** The article covers the activities of the music theory department at the Urgench Specialized School of Arts and Culture. It discusses the teachers' experiences in teaching solfeggio, harmony, and music literature using modern methods, as well as approaches to developing students' creative thinking.

**Keywords:** music theory, art school, educational process, teaching methodology, solfeggio, harmony, musical thinking, creative approach.

Musiqa insoniyatning eng qadimiy san'at turlaridan biri bo'lib, u qadim-qadimdan odamzot hayoti, turmushi va ruhiy olamining ajralmas qismi sifatida rivojlanib kelgan. Musiqa orqali inson o'z quvonchi va g'am-tashvishini ifoda etadi, o'zaro muloqotga kirishadi, jamiyat madaniy hayotida o'z o'rnini topadi. Biroq musiqani chuqur tushunish va anglash uchun uni faqat tinglashning o'zi kifoya qilmaydi. Har bir kuy va qo'shiqning ichki tuzilishi, ohangdorlik qonunlari, lad va garmoniyasi, shakl va janr xususiyatlari mavjud. Ana shu murakkab jihatlarni o'rgatadigan va musiqiy tafakkurni shakllantiradigan fanlar esa musiqiy nazariy fanlardir.

Musiqa nazariyasi san'at ta'limining asosiy bo'g'ini hisoblanib, har bir ijrochi, kompozitor yoki musiqashunosning yuksak mahoratga erishishi avvalo shu bilimlarga bog'liq. Shu nuqtai nazardan qaralganda, Urganch ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktabining musiqa nazariyasi bo'limi hududda musiqa ta'limini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur bo'lim 1965-yilda tashkil topib, o'tgan davr mobaynida yuzlab iqtidorli o'quvchilarni tarbiyaladi va ularni keyinchalik oliy ta'lim muassasalariga, professional san'at yo'nalishlariga tayyorladi.

Mazkur bo'limning faoliyati o'quv dasturlari, dars uslublari, tajribali o'qituvchilarning izlanishlari va erishgan yutuqlari orqali o'z ifodasini topmoqda. Shu bois, musiqa nazariyasi bo'limining ilmiy-metodik asoslari, o'qituvchilari hamda bitiruvchilarining yutuqlarini tahlil qilish nafaqat mahalliy, balki umumiy musiqashunoslik rivojida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Urganch ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktabining musiqa nazariyasi bo'limi o'z faoliyatini hududda musiqiy savodxonlikni oshirish, nazariy bilimga ega yosh kadrlarni tayyorlash maqsadida tashkil etilgan. O'sha yillarda musiqaga bo'lgan talab ortib, ijrochilik bilan bir qatorda nazariy tayyorgarlikka ham ehtiyoj kuchaygan edi. Shu zarurat tufayli bo'lim ochilib, dastlabki yillarda o'quv jarayonlari rus tili asosida olib borilgan.

Urganch ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktabida musiqa nazariyasi bo'limi 1965-yilda tashkil etilib, qisqa vaqt ichida mustaqil faoliyat yurita boshladi.

Bo`limning shakllanishida hududda mutaxassislarning yetishmasligi tufayli, dastlab Toshkent musiqa bilim yurtini tugatgan bitiruvchilar va iste`dodli yoshlar jalb qilindi. Ularning sa'y-harakatlari bilan nafaqat o`quv jarayoni yo`lga qo'yildi, balki ijodiy izlanishlar ham rivoj topdi.

Dastlabki yillarda bo`limda qashqar rubobi mutaxassisi Ozod Matyoqubov, xor dirijyori Islom Ollaberganov, rubobchi Jumaboy Tojimov, fortepianochi Farogat Otajonova kabi o`qituvchilar musiqa nazariyasi fanlaridan dars bera boshladilar. 1965-yildan boshlab birinchi xorazmlik yosh mutaxassis Munis Polvonov ijrochilik bo`limlarida musiqa nazariyasidan dars bera boshlagan.

1070-yillarga kelibgina, bilim yurtida oliy ma'lumotli musiqashunoslar dars bera boshladilar. Bular Toshkent davlat konservatoriyasini tugatgan Ulug`bek Musaev, Qadamboy Polvonov, Sofya Sobirova, Kamol Malikov, Botir Raximov, Davron Raximov, Radjabbibi Ataevalar kabi musiqa bilimdonlari edi.

1980-1990-yillarga kelib Urganch maktabi hududiy miqyosda kuchli ilmiy-nazariy markazga aylandi. Bu davrda Gulbaxor Boltayeva, Gulnora Boboniyozova, Marhabo Otajonova, Alisher Masharipov, Rayhon Jumaboyeva, Bekposhsha Yoqubova kabi o`z kasbiga sodiq mutaxassislar bo`lim safini to`ldirdi. Yangi avlod o`qituvchilari pedagogik jarayonga zamonaviy metodlarni olib kirib, darslarning mazmuni va samaradorligini oshirdilar.

Bo`lim faoliyati ilk bosqichlarda asosan Yevropa musiqasining nazariy asoslarini o`qitish bilan boshlandi. O`quvchilarga g`arb mumtoz musiqasining shakl va janrlari, Yevropa kompozitorlarining asarlari asosida musiqa savodi va tahlili o`rgatildi. Bu jarayon keyinchalik milliy musiqashunoslikni puxta o`rganish uchun mustahkam zamin yaratdi. Shu davrda "Musiqa asarlari tahlili", "Polifoniya", "Notiqchilik amaliyoti" kabi fanlar orqali talabalar Yevropa musiqasi namunalari bilan ayqindan tanishdilar.

Dastlab bo`limda faqat "O`zbek musiqa adabiyoti" faniq o`qitilgan bo`lsa, keyinchalik "O`zbek xalq musiqa ijodi", "O`zbek mumtoz musiqasi", "O`zbek an'anaviy cholg`ulari" kabi fanlar ham qo`shildi. Natijada bo`lim faoliyatida Yevropa musiqa merosini o`rganish bilan bir qatorda, milliy kuy-qo`shiqlarimiz va kompozitorlar ijodi ham nazariy jihatdan chuqur o`rganish imkonini berdi.

Shunday qilib, bo`limning asosiy maqsadi ikki yo`nalishda shakllandi: bir tomondan o`quvchilarga jahon musiqa merosini, ikkinchi tomondan esa milliy musiqiy merosimizni nazariy jihatdan chuqur tahlil qilish va amaliyot bilan uyg`unlashtirish. Bu yondashuv o`z navbatida maktabning ilmiy-nazariy salohiyatini oshirdi va o`quvchilarda keng musiqiy dunyoqarashni shakllantirdi.

Bo`lim o`qituvchilari Al Farobiy xazratlari birinchi bo`lib notaga asos solganligini, Faxriddin Roziy xazratlari ko`hna Urganchda musiqa haqida risola yozganligi va boshqa buyuk allomalarning musiqa haqida yozganlariga tayangan holda, nazariy fanlarni ilmiy asosda yoritib berishga harakat qildilar. Bu jarayonda xorazmlik mashhur ustozlar - Muhabbat Murtazayeva va Sadulla Nurmetovlarning xizmatlari alohida ahamiyatga ega.

Yillar o`tgan sari musiqa nazariyasi bo`limi o`z faoliyatini yanada takomillashtirib bordi. Dastlabki davrlarda asosiy e`tibor nazariy bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan bo`lsa, keyingi yillarda bu jarayon ijodiy fikrlash, musiqani tahlil qilish va amaliy ko`nikmalarni rivojlantirish bilan boyidi. Har bir davr o`ziga xos o`qituvchilari, uslublari va yangicha qarashlari bilan ajralib turdi.

Bo`lim devorlari ichida o`nlab iste`dodli yoshlar voyaga yetdi. Ularning ayrimlari bastakor, ijrochi yoki musiqashunoslar sifatida yurtimiz madaniyatida o`z o`rnini topdi. Har bir avlod o`z davrining musiqiy ruhini olib kirib, yangi g`oyalar va izlanishlar bilan bo`lim hayotini boyitdi.

Shu tariqa, o`tgan yillar davomida to`plangan tajriba, fidoyi ustozlarning mehnati va yoshlarning intilishi musiqa nazariyasi bo`limining bugungi yuksak darajadagi faoliyatiga zamin yaratdi. Bugungi kunda esa bu bo`lim o`z tarixiy an`analarini saqlagan holda, zamonaviy ta`lim talablari asosida rivojlanishda davom etib, yosh avlodni musiqani chuqur anglay oladigan, tahlil qila biladigan va ijodiy fikrlovchi mutaxassislar sifatida tayyorlanmoqda.

Bo`lim tashkil topganiga 60 yildan oshgan bo`lsa-da, u o`z tarixida ko`plab muvaffaqiyatlarga erishdi. Dastlab musiqiy savod, intervallar, tonallik, ritm kabi asosiy tushunchalarni o`qitishdan boshlangan bu bo`lim keyinchalik professional darajadagi nazariy bilimlarni o`rgatishga, yosh avlodni musiqa olamiga keng yo`l bilan olib kirishga

muvaffaq bo'ldi. Bugunga kelib, "Musika nazariyasi" bo'limi - o'zining tajribali ustozlari, faol o'quvchilari va kasbiy an'analariga ega mustahkam ilmiy markazga aylangan.

Hozirda bo'limda 11 nafar malakali o'qituvchi faoliyat yuritib, mutaxassislik fanlari bo'yicha "Garmoniya", "Solfedjio", "Polifoniya", "Musika asarlari tahlili", "O'zbek musiqa adabiyoti", "Cholg'ushunoslik", "Sharq xalqlari musiqasi", "Yevropa xalqlari musiqasi", "Amaliyot", kabi fanlardan dars beradi. Har bir pedagog o'z sohasi bo'yicha nafaqat dars o'tadi, balki o'quvchilarga ijodiy yondashuv, musiqani his qilish madaniyati va nazariy tafakkurni rivojlantirishda katta e'tibor qaratadi.

Bo'lim faoliyati rahbari sifatida tajribali mutaxassis Raximov Davron Matyusupovich boshchilik qiladi. Kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi va musiqa nazariyasi bo'limi o'qituvchisi sifatida Ataeva Radjabbibi Abdulovna va bo'lim jamoasi safida Malikov Kamol Jalolovich, Babaniyozova Gulnora Yo'ldashevna, Masharipov Alisher Farxodovich, Jumaboeva Rayxon Ruzmamatovna, Ruzmetov Bekpulat Masharipovich, Matniyazov Ilxom Alisherovich, Xodjaeva Adolat Ismailovna, Raximova Xulkar Uktamovna, Atajonova Barno Atabekovnalari fidoyi pedagoglar sifatida faoliyat turitib kelmoqdalar.

Mazkur o'qituvchilar o'z kasbiga sadoqatli, yillar davomida to'plagan tajribasini yosh avlodga fidoyilik bilan o'rgatib kelayotgan mutaxassislardir. Ularning darslari nafaqat nazariy bilim berish, balki o'quvchilarning ijodiy fikrlashini, musiqiy eshituvini va tahliliy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'qituvchilar har bir darslarda turli xil metodlardan foydalangan holda dast o'tadilar. Masalan: Solfedjio darslarida "Tovushni top" o'yini orqali o'qituvchi fortepianoda bir necha notani chaladi, o'quvchilar esa larning nomini topadilar. "Ohangni davom et" mashqida esa ustoz birinchi frazani chaladi, o'quvchilar uni ohangdor tarzda davom ettiradilar. "Ritmik klapon" metodi orqali o'quvchilar notaning davomiyligini qo'l harakati bilan ifodalaydilar - bu usul ularning ritmni his qilishini mustahkamlaydi. "Eshitish orqali yoz" ya'ni musiqiy diktant orqali o'qituvchi qisqa ohangni chaladi, o'quvchilar uni eshitib notaga tushiradilar.

Garmoniya darslarida "Akkord zanjiri tuzish" mashqi orqali ular turli kadensiyalarni topadilar, "Quloq bilan aniqlash" metodi esa garmonik eshituvni rivojlantiradi. O'qituvchi

fortepianoda turli akkordlarni chaladi, o`quvchilar esa ularning turlarini farqlaydilar. Shuningdek o`quvchilar o`zlari tuzgan garmonik ketma-ketlikni chalib, tahlil qiladilar - bu esa nazariyani amaliyot bilan bog`laydi.

Musiqqa adabiyoti darslarida o`quvchilar musiqaning tarixiy taraqqiyoti, buyuk kompozitorlar hayoti va ularning asarlari bilan tanishadilar. Bu darslarda ko`proq “Eshit-tahlil qil-tushun” metodi keng qo`llaniladi: o`qituvchi asarni tinglatadi, so`ng o`quvchilar uning g`oyasi, xarakteri va ifoda vositalarini tahlil qiladilar.

O`qituvchilarning shunday mehnatlari sabab, bo`lim bitiruvchilari keyinchalik oliy ta`lim muassasalarida muvaffaqiyatli tahsil olib, musiqiy sohada yetuk mutaxassis bo`lib yetishmoqdalar.

Musiqqa nazariyasi bo`limida tahsil olayotgan o`quvchilar - bu san`atga qalban oshno, musiqaning sehrli olamiga chuqur qiziqish bilan kirib kelgan iqtidorli yoshlar. Ular har bir darsni nafaqat o`qish jarayoni, balki ijodiy kashfiyot sifatida qabul qiladilar. Solfedjio mashg`ulotlarida ohang eshituvini o`tkirlashtiradilar, garmoniya fanida esa tovushlar uyg`unligi sirlarini anglaydilar. Har bir o`quvchi uchun nota daftari - bu oddiy qog`oz emas, balki kelajakdagi ijodining ilk sahifasidir.

O`quvchilarning dars jarayonlariga bo`lgan munosabati, o`z ustida ishlashga bo`lgan intilishi, ijodiy fikrlashga tayyorligi - bu bo`limning eng katta yutug`i sanaladi. Ular har bir mashg`ulotda musiqa tilining go`zalligini anglab, ohanglar orqali o`z fikrini ifoda etishni o`rganmoqdalar. Aynan shunday yosh iste`dodlar ertangi kunning musiqashunoslari, kompozitorlari va pedagoglari bo`lishiga ishonch katta.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Yangi O`zbekiston – yangicha tafakkur” asari. – Toshkent: O`zbekiston, 2021.
2. O`zbekiston Respublikasi “Ta`lim to`g`risida”gi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2020.
3. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ixtisoslashtirilgan san`at va madaniyat maktablari faoliyatini takomillashtirish to`g`risida”gi qarori. – Toshkent, 2019.
4. Sapayev H. “Urganch ixtisoslashtirilgan san`at va madaniyat maktabining ijodiy faoliyati” // “Madaniyat va san`at” jurnali. – Toshkent, 2023.

5. O'tegenov K. "Musiqqa nazariyasi asoslari". – Toshkent: San'at, 2015.
6. Ismoilova N. "Musiqqa ta'limida nazariy bilimlarni o'qitish metodikasi". – Toshkent: Oliy ta'lim, 2018.
7. Karimova D. "Musiqqa maktablarida o'quv jarayonini takomillashtirish yo'llari". – Xorazm: Urganch DU nashriyoti, 2021.
8. Yusupov I. "O'zbek musiqasi tarixi". – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2008.
9. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining rasmiy veb-sayti: [www.madaniyat.uz](http://www.madaniyat.uz)
10. Urganch ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktabining ichki hujjatlari va o'quv rejalari. – Urganch, 2024.